

KASB TANLASH JARAYONIDA SHAXSIY QIZIQISH VA QOBILIYATNING AHAMIYATI

Sodiqova Shahnoza Muzaffarjon qizi

Andijon viloyati Qo'rg'ontepa tumani 26-maktab psixologi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada kasb tanlash jarayonida shaxsiy qiziqish va qobiliyatning o'rni hamda ahamiyati yoritib berilgan. Kasb tanlashda o'quvchilarning individual psixologik xususiyatlarini inobatga olish, ularning qiziqish doirasi va qobiliyatlariga mos kasbni tanlash orqali kasbiy muvaffaqiyatga erishish masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, kasbga yo'naltirish jarayonida maktab psixologi, pedagoglar va ota-onalar hamkorligining ahamiyati asoslab berilgan. Maqola ta'lim muassasalari mutaxassislari va psixologlar uchun amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: kasb tanlash, shaxsiy qiziqish, qobiliyat, kasbga yo'naltirish, o'quvchi shaxsi, psixologik xususiyatlar, kasbiy muvaffaqiyat, ta'lim jarayoni.

KIRISH

Bugungi kunda yoshlarni ongli ravishda kasb tanlashga yo'naltirish ta'lim tizimining eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Kasb tanlash inson hayotida muhim va mas'uliyatli qaror bo'lib, bu qaror shaxsning kelajakdagi ijtimoiy mavqei, moddiy farovonligi, ruhiy holati va jamiyatdagi o'rnini belgilab beradi. Ayniqsa, ushbu jarayonda shaxsiy qiziqish va qobiliyatni inobatga olish kasbiy muvaffaqiyatning asosiy omillaridan sanaladi.

Shaxsiy qiziqish insonning ma'lum bir faoliyat turiga bo'lgan ichki moyilligi, zavqi va intilishidir. Qiziqish mavjud bo'lgan kasb inson uchun majburiyat emas, balki hayotining mazmuniga aylanadi. Bunday holatda shaxs o'z ishiga mas'uliyat bilan yondashadi, bilim va ko'nikmalarini doimiy ravishda rivojlantirishga harakat qiladi. Qiziqish asosida tanlangan kasb mehnatdan charchashni kamaytiradi, ruhiy qoniqish beradi va professional kuyishning oldini oladi.

Qobiliyat esa shaxsning ma'lum bir faoliyatni muvaffaqiyatli bajarishiga imkon beruvchi individual psixologik xususiyatlar majmuasidir. Har bir inson tug'ma va rivojlanadigan qobiliyatlarga ega bo'lib, ularni o'z vaqtida aniqlash va to'g'ri yo'naltirish muhim ahamiyatga ega. Qobiliyatga mos kelmagan kasb tanlanganda, shaxs qanchalik mehnat qilmasin, kutilgan natijaga erisha olmasligi, o'ziga ishonchi pasayishi va ruhiy tushkunlikka tushishi mumkin.

Kasb tanlash jarayonida faqatgina moddiy manfaat, ota-ona yoki atrofdagilar bosimi asosida qaror qabul qilish ko'plab salbiy oqibatlariga olib keladi. Bunday tanlov ko'pincha kasbdan norozi bo'lish, ish faoliyatini tez-tez o'zgartirish, mehnat

samaradorligining pasayishi bilan yakunlanadi. Shu sababli kasb tanlashda shaxsning ichki imkoniyatlari, qiziqish doirasi va qobiliyatlari asosiy mezon bo'lib xizmat qilishi lozim.

O'quvchilarda qiziqish va qobiliyatni aniqlashda psixologik testlar, suhbatlar, kuzatuvlar, kasbga yo'naltiruvchi mashg'ulotlar muhim rol o'ynaydi. Maktab psixologi, sinf rahbari va fan o'qituvchilarining hamkorligi orqali o'quvchilarning individual xususiyatlari aniqlanadi va ularga mos kasblar tavsiya etiladi. Ota-onalar bilan olib boriladigan tushuntirish ishlari ham bu jarayonda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kasb tanlash jarayonida shaxsiy qiziqish va qobiliyat uyg'unlashganda, jamiyat uchun foydali, o'z kasbidan mamnun, mas'uliyatli va yetuk mutaxassislar yetishib chiqadi. Bunday shaxslar nafaqat o'z hayotidan, balki jamiyatdagi faoliyatidan ham qoniqish hosil qiladi. Shunday ekan, yoshlarni kasb tanlashga yo'naltirish jarayonida ularning ichki imkoniyatlarini ochish, mustaqil fikrlashga o'rgatish va ongli qaror qabul qilishiga ko'maklashish har bir pedagog va psixologning muhim vazifasidir. Kasb tanlashda shaxsiy qiziqish va qobiliyatni hisobga olish inson hayotidagi muvaffaqiyat, ruhiy barqarorlik va kasbiy yetuklikning kafolatidir. To'g'ri tanlangan kasb shaxsning o'zini namoyon etishiga, jamiyat rivojiga munosib hissa qo'shishiga xizmat qiladi.

Qiziqishlar – bu insonni biror faoliyatga, soha yoki mashg'ulotga ongli ravishda tortuvchi ichki ehtiyojdir. O'quvchi o'ziga yoqadigan, ishtiyoq bilan shug'ullanuvchi faoliyat turlariga nisbatan kuchli ichki qiziqishga ega bo'ladi. Bu esa uning kasb tanlash jarayonida yo'nalishini to'g'ri belgilashda muhim omil hisoblanadi. Misol uchun:

-Texnika, mexanizmlar bilan shug'ullanishni yoqtiradigan o'quvchi – muhandislik sohasiga moyil bo'lishi mumkin.

-Insonlar bilan muloqot qilishni yaxshi ko'radiganlar – psixologiya, pedagogika, tibbiyot kabi sohalarga mos keladi.

-Rassomlik, dizayn yoki musiqa bilan shug'ullanishni yoqtiradiganlar – ijodiy kasblarga yaqin bo'ladi.

Qiziqishlar o'zgaruvchan bo'lishi mumkin, shuning uchun o'quvchi o'zini sinab ko'rishi, turli faoliyat turlarida ishtirok etishi orqali o'z yo'nalishini aniqlashtiradi. Muammo shundaki, ayrim o'quvchilar o'z qiziqishlarini to'liq anglab yetmagan bo'ladi. Shuning uchun maktab davridayoq kasbga yo'naltiruvchi ishlar boshlanishi zarur.

Odamzod paydo bo'lishidan boshlab mehnat bilan shug'ullangan, turmush buyumlari yasagan yumushlar bajargan. Juda ko'p kasblar ichida qaysi birini tanlash, unga shaxs moyilligi, layoqati va qiziqishlarining mos kelishi yoki kelmasligini bilish shaxs istiqbolida muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa o'quvchi- yoshlarni kasbga

yo'naltirish umumta'lim maktabi ishining tarkibiy qismidir. Ma'lumki, agar kasb to'g'ri tanlangan bo'lsa, inson uchun mehnat quvonch, ijodiy ilhom manbaiga aylanadi, bu esa inson uchun ham jamiyat uchun ham foydalidir. Shu o'rinda psixologlarimiz ta'kidlaganidek, insonning o'zi xohlagan erkin tanlashi nihoyatda katta ahamiyatga ega. Inson sevgan ishi bilan shug'ullansa, u bu ishdan xursand bo'lishi, qanoat hosil qilishi, ko'p tashabbus ko'rsatishi, charchamay g'ayrat bilan ishlashi mumkin. Yoshlarni mustaqil mehnat faoliyatiga puxta tayyorlash va ularning kasb- hunarini o'z qobiliyatlariga yarasha to'g'ri tanlashlariga erishish uchun maktab o'qituvchilarining pedagogik mahorati, bilim saviyasi, didaktik qobiliyatlar yuksak bo'lishi, fan asoslarini turmush bilan bog'lab o'rganilishi, to'g'arak va qo'shimcha, yordamchi kurslar oqilona uyushtirilishi, maktablarda kasb- hunar to'g'risida ma'ruzalar o'qilishi, suhbatlar, munozaralar o'qilishi, sayohatlar, uchrashuvlar, kasb - hunar foto ko'rgazmalari tashkil qilishlari zarur. Kasbga nisbatan qiziqishni vujudga keltirish o'qituvchining pedagogik faoliyati bilan bevosita bog'liqdir.

Kasb tanlashga ta'sir etuvchi psixologik omillar :

1. Qiziqish va mayllar

Yoshlarning kasb tanlashida shaxsiy qiziqishlar muhim rol o'ynaydi. Inson biror faoliyatga qiziqsa, ushbu sohaga oid bilimlarni oson o'zlashtiradi va unda muvaffaqiyatga erishish ehtimoli oshadi. Qiziqishlar shaxsning ichki motivatsiyasini kuchaytirib, o'zini faol rivojlantirishga undaydi.

2. Individual psixologik xususiyatlar

Har bir inson o'z psixologik tipiga ega: analitik fikrlash, ijodkorlik, muloqotga kirishuvchanlik, sabr-toqat, tashabbuskorlik. Bu xususiyatlar kasbni muvaffaqiyatli bajarish imkoniyatini belgilaydi.

3. O'zini anglash

Eriksonning rivojlanish bosqichlari nazariyasiga ko'ra, o'smirlik davri "Kasbiy identifikatsiya" shakllanadigan davr hisoblanadi. O'zini anglash darajasi past bo'lgan bolalar kasb tanlashda boshqalarning fikriga bog'liq bo'lib qoladilar.

4. Motivatsiya

Motivatsiya ichki (qiziqish, o'zini rivojlantirish istagi) va tashqi (maosh, obro', ijtimoiy maqom) ko'rinishda bo'ladi.

5. Emotsional barqarorlik

Kasb tanlashda shaxsning stressga chidamliligi, mas'uliyat darajasi va emosional barqarorligi katta ahamiyatga ega.

Oilaviy qadriyatlar va kasb tanlash:

1. Ota-ona kutishlari Ba'zan ota-onalar farzandini o'zlari istagan kasbga yo'naltiradilar. To'g'ri yo'l esa — farzand qiziqishini qo'llab-quvvatlashdir.

2. Oilaviy an'analar Ba'zi oilalarda bir necha avlod bir kasbni davom ettiradi. Bu yoshning qaroriga kuchli psixologik ta'sir ko'rsatadi.

3. Moddiy ta'minot va imkoniyatlar Oilaviy iqtisodiy sharoit ham kasb tanlash imkoniyatlarini belgilaydi.

4. Oila ichidagi muloqot Iliq munosabat va farzand fikriga hurmat kasb tanlashda katta yordam beradi.

Ijtimoiy normalar va jamiyatning ta'siri:

1. Jamiyatda mashhur kasblar Mehnat bozoridagi talab yoshlar tanloviga bevosita ta'sir qiladi.

2. OAV va ijtimoiy tarmoqlar. Reklama, bloggerlar va mashhur shaxslar kasb haqidagi tasavvurlarni shakllantiradi.

3. Ta'lim muassasalari Maktabdagi kasbga yo'naltirish mashg'ulotlari ham muhim omildir. Yoshlarning kelajak kasbini tanlashi, karyerasini rejalashtirishini ko'pgina psixologlar erta balog'atga yetishning asosiy belgilaridan biri sifatida e'tirof etadilar. Vernerning fikricha, insonning kasbi va uning shaxsiy rivojlanishi uzviy bog'liqdir. Inson kasbida qancha rivojlansa, bu uning shaxs sifatida rivojlanishiga, jamiyatda munosib o'rin egallashiga ham katta ta'sir qiladi. E'tibor beradigan bo'lsak, ko'pgina biz hurmat qiladigan mashhur shaxslarning deyarli barchasi o'z kasbining ustalaridir. Kasbida mohir bo'lganliklari ularni insonlar orasida hurmatli va mashhur qilgan. Bu mohirlikning sababi esa ularning o'z salohiyatlari va qiziqishlariga mos, o'zlari zavq oladigan kasbni topa olganliklaridadir. Shaxsiy qiziqishlari va qobiliyatlaridan kelib chiqib kasb tanlash yoshlarning kasbiy rivojlanishini kafolatlovchi eng samarali omil sifatida ko'p psixolog olimlar tomonidan e'tirof e'tiladi. Chunki, har bir insonda qiziqish, ijtimoiy muhit, qobiliyat va salohiyat turlicha.

O'z qiziqqan sohasida faoliyat yuritish insonga kasbidan zavqlanish, qiyinchilik paytarida kuch va energiya beradi. Ko'pincha bu omilga e'tibor berib kasb tanlaydigan insonlar voyaga yetgan, tanqidiy fikrlashi shakllangan, mustaqil fikrga ega bo'ladilar (Betz va Voyten, 1997). Tadqiqotlarning ko'pchiligi, shaxsiy qiziqishlari va salohiyatidan kelib chiqib kasb tanlagan insonlarda kasblaridan qoniqish hissi yuqori ekanligini ko'rsatadi. Kasb tanlash qarorida shaxsning ruhiy-emotsional holati ham rol o'ynaydi. Ko'pincha yoshlar bosim, qo'rquv yoki tashvish ta'sirida noto'g'ri qaror qabul qilishlari mumkin. Agar qaror shaxsning haqiqiy qiziqishlari va qobiliyatlariga mos bo'lmasa, keyinchalik professional charchash (burnout) va norozilik holatlari yuzaga kelishi ehtimoli yuqori bo'ladi. Kasb tanlashning eng muhim psixologik omillaridan yana biri-bu shaxsning o'zini to'liq anglay olishi, ya'ni o'z qiziqishlari, kuchli va zaif tomonlarini tahlil qila bilishidir. O'zini yaxshi anglagan yoshlar odatda ongli qaror qabul qiladilar va tanlagan kasblarida ko'proq muvaffaqiyatga erishadilar. Bugungi kunda ta'lim muassasalarida psixologik maslahat va yo'naltirish xizmatlari yoshlarning kasb tanlash qarorini shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

XULOSA

Kasb tanlashda shaxsiy qiziqish va iqtidorni hisobga olish – bu faqat to‘g‘ri tanlov emas, balki baxtli va muvaffaqiyatli hayot sari tashlangan muhim qadamdir. Ta’lim muassasalari qoshida kasbga yo‘naltirish markazlari tashkil qilish, o‘quvchilar bilan individual va guruhiiy diagnostik suhbatlar o‘tkazish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI :

1. Axmedov B. “Kasbga yo‘naltirish asoslari”, Toshkent: O‘qituvchi, 2020.
2. Muxitdinova N.M. “Psixologiyaning asosiy yo‘nalishlari”, Toshkent, 2021.
3. Super D. “The Psychology of Careers”, Harper & Row, 1957.
4. Golland J. “Career Choice Theory”, 1992.
5. Ziyo.net